

NOGIRONLIGI BOR BOLALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHNING HUQUQIY VA SOTSIOLOGIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577191>

Tolibov Bekzod Xakimovich,

*Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy ish kafedrası mudiri,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Turdiboyeva Madinaxon Farhod qizi

*Farg'ona davlat universiteti
Ijtimoiy ish mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayonida inson huquqlari, xususan, nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy himoyasi va ta'lim-tarbiyasini ta'minlash masalalari dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiyasi va moslashuv jarayonini o'rganish, uning prinsiplari, mexanizmlari, asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, nogironligi bor shaxslarni jamiyatga qo'shilish muammolarini amaliy hal etish bir qancha fanlar qatori ijtimoiy ishning ham muhim muammolariga tegishli ekanligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar

Reabilitatsiya, ijtimoiy model, ijtimoiy reabilitatsiya, innovatsion texnologiyalar, diskriminatsiya, sensor, ijtimoiy integratsiya, stereotip.

UNICEFning 2021 yilgi yangi hisobotiga ko'ra, dunyo miqyosida 240millionga yaqin nogironligi bor bolalar istiqomat qiladi [1]. O'zbekiston Respublikasida esa bir millionga yaqin imkoniyati cheklangan va nogironligi bor fuqarolar[2], shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bor bolalar istiqomat qilmoqda[3]. Jumladan, O'zbekistonda bor bo'lgan 9 mln. 800ming nafardan ziyod 16 yoshgacha bolalardan, 100 ming 110 nafarida nogironlik mavjud. Nogironligi bo'lgan bolalarning 54 ming 846 nafari o'g'il, 45 ming 264 nafari qizlar. Ularning 43 ming 47 nafari shaharlarda, 57 ming 63 nafari qishloq joylarda istiqomat qiladi[4]. Bu raqamlar jamiyatda mazkur toifa vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularning to'laqonli hayotini, ta'lim olishini va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Chunki yurtimizda nogironligi bor bolalarni ijtimoiy himoyasini tashkil etish va ularni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasida "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" asosida nogironligi bor bolalarning huquqiy maqomi, ularni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari shakllantirilgan. Mazkur hujjatlar nogironligi bor bolalarning jamiyatda faol ishtirok etishlari, inklyuziv ta'lim olishlari va o'z salohiyatlarini to'liq namoyish etishlari uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratishning muhim kafolatidir.

Ilmiy manbalarda nogironlik masalalariga ijtimoiy, psixologik, pedagogik va sotsiologik nuqtayi nazardan yondashuvlar mavjud. T.Ahmadaliyev, M.Soliyeva, M.X.Mirjamolov, F.U.Qodirova, M.X.G'aniyeva, N.M.Latipova kabi olimlar imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, reabilitatsiya qilish hamda kasb-hunar o'rgatishning samarali metodlarini ishlab chiqqanlar[7,8]. Shuningdek, G'arb olimlaridan I.Goffman, T.Parsons, E.Dyurkgeym kabi tadqiqotchilar stigmatizatsiya, ijtimoiy rol va ijtimoiy model nazariyalari orqali nogironlikning sotsiologik mohiyatini yoritganlar[9,10].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan jamiyatda mavjud bo'lgan stereotiplar, ijtimoiy cheklovlar va stigmatizatsiya hodisalari ularning teng imkoniyatlardan foydalana olmasligiga olib kelmoqda. Shu bois, ijtimoiy modelni amaliyotga joriy etish, ularning inson sifatidagi qadr-qimmatini ta'minlash, o'z taqdirlarini mustaqil belgilash huquqini amalga oshirish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir.

Nogironlikni o'rganishda sotsiologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. T.Parsons "kasal insonning ijtimoiy roli"ni o'rganib, jamiyatning nogironlikka bo'lgan munosabati ijtimoiy tizim barqarorligiga bevosita ta'sir etishini ta'kidlaydi[9]. I.Goffman esa stigmatizatsiya nazariyasida "ijtimoiy yorliq" tushunchasini ilgari surib, nogironlikni kasallik sifatida emas, balki jamiyat tomonidan shaxsga nisbatan "tamg'a" qo'yish natijasi sifatida izohlaydi[10].

Nogironlikning ijtimoiy modeli XX asrning 70-yillarida Buyuk Britaniyada shakllanib, insonning imkoniyatsizligi uning shaxsiy xususiyatlaridan emas, balki jamiyatdagi to'siqlar, diskriminatsiya va moslashmagan muhit tufayli yuzaga kelishini ilgari suradi[5]. Ushbu modelga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar faol ishtirokchi, o'z huquqlari uchun kurashuvchi subyektlar sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston sharoitida nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari davlat qonunlari va xalqaro hujjatlar bilan mustahkamlangan. "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida nogiron bola "barqaror jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va

jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs" deb ta'riflanadi[6].

T.Ahmadaliyev va M.Soliyevalar o'z tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar o'rgatish metodikasini ishlab chiqib, ularni ijtimoiy moslashtirishda individual yondashuv muhimligini ta'kidlaganlar[7]. F.U.Qodirova esa ijtimoiy tayyorgarlik jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyati cheklangan bolalarda o'ziga ishonchni oshiradi, ota-ona va mutaxassislar hamkorligini mustahkamlaydi, deb qayd etgan[8].

Shuningdek, stigmatizatsiya muammosi ijtimoiy ongda saqlanib qolmoqda. Yu.Smirnova fikricha, "nogiron" atamasi ko'pincha himoyasizlik, ojizlik, yordamga muhtojlik sifatida idrok etiladi, bu esa ijtimoiy ajratish va kamsitish holatlarini kuchaytiradi[9]. Shu sababli, "nogiron" o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" terminidan foydalanish, inson sha'ni va qadr-qimmatini e'tirof etish nuqtayi nazaridan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Nogironlikni tibbiy nuqson sifatida emas, balki ijtimoiy muammo sifatida baholovchi yondashuv –ijtimoiy model-bugungi kunda nogironligi bor shaxslarning teng huquqliligini ta'minlashning asosiy nazariy hamda amaliy yo'nalishiga aylanmoqda.

Mazkur model doirasida nogironligi bor bolalar nafaqat yordamga muhtoj shaxslar, balki o'z taqdirlarini o'zgartirishga qodir, faol, mustaqil subyektlar sifatida e'tirof etiladi. Bu esa ularning ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va mehnat sohalarida teng imkoniyatlardan foydalanishini kafolatlaydi. Shu jihatdan, davlat, jamiyat va oilaning hamkorlikdagi faoliyati orqali imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv muhit yaratish, stigmatizatsiyani kamaytirish va inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan siyosatni izchil davom ettirish zarurdir.

Shunday qilib, nogironligi bor bolalar masalasiga inson huquqlari asosida yondashish, ularni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ko'rish, ijtimoiy adolat va bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirish- kelajak avlod uchun ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. United Nations Children's Fund, Seen, Counted Included: Using data to shed light on the well-being of children with disabilities, UNICEF, New York, 2021.P.18 <https://data.unicef.org/resources/children-with-disabilities-report-2021>

2. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/ozbekiston> -xalqiga-murojaat
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisi to'g'risidagi AXBOROT <http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/infomacia-o-sedmom-plenamom-zasedanii-senata-olij-mazlisa-respubliki-uzbekistan> (15.05.2021)
4. Ulug'bek Vafojev. Nogironlarni parvarish qilayotgan kishilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish lozim.// Xalq so'zi. 29 sentyabr 2020 <https://xs.uz/uz/post/nogironlarni-parvarish-qilayotgan-kishilarning-izhtimoiy-himoyasini-kuchajtirish-lozim>
5. Oliver M.(1990). The Politics of Disablement. London:Macmillan
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida" (2020-yil 15-oktabr)
7. Ahmadaliyev T., Soliyeva M. (2018) Imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar o'rgatish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Qodirova F.U. (2020). Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda innovatsion texnologiyalar. Toshkent
9. Parsons T. (1951). The Social System. Glencoe: Free Press
10. Goffman E. (1963). Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. New York: Simon&Schuter.
11. Smirnova Yu. (2017). Sotsiologiya invalidnosti. Moskva: Nauka.